



AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA QURILISH VA ME`MORCHILIK SOHASIDAGI O`ZGARISHLAR SAMARQAND MISOLIDA.

N. Begaliyev ShDPI o`qituvchisi

X.Avazov ShDPI talabasi

Sh.Suyarova ShDPI talabasi

Annotatsiya. Maqolada Amir Temur va Temuriylar tomonidan buniyod etilgan inshoatlarning o`ziga xos qurilish texnikasi va boshqa davr me`morchiligidan farqli jihatlari, shuningdek XIV-XV asrda Samarqandda qurilgan memoriy obidalardagi o`xshashliklar va o`ziga xos jihatlari, Go`ri Amir, Shohi Zinda va boshqa me`moriy obidalarning qurilishidagi o`zgarishlar haqida so`z yuritiladi.

Kalit so`zlar. Amir Temur, Saraymulkxonim (Bibixonim), Mirzo Ulug`bek, Go`ri Amir, Shohi Zinda, Bibixonim masjidi, Ulug`bek rasadxonasi, koshin.

Abstract. In the article, the constructions built by Amir Temur and the Timurids are characterized by their unique construction techniques and aspects different from the architecture of other periods, as well as the similarities and unique aspects of the memorial monuments built in Samarkand in the XIV-XV centuries, Gori Amir, Shahi Zinda and changes in the construction of other architectural monuments are discussed.

Key words. Amir Temur, Saraymulkhanim (Bibikhanim), Mirzo Ulugbek, Gori Amir, Shahi Zinda, Bibikhanim mosque, Ulugbek observatory, tile.

Абстрактный. В статье постройки, построенные Амиром Темуром и Тимуридами, характеризуются своей уникальной строительной техникой и аспектами, отличными от архитектуры других периодов, а также сходством и своеобразием мемориальных памятников, построенных в Самарканде в XIV-XV веках. века, Гори Амир, Шахи Зинда и изменения в строительстве других архитектурных памятников.

Ключевые слова. Амир Темур, Сараймулханим (Бибиханим), Мирзо Улугбек, Гори Амир, Шахи Зинда, мечеть Бибиханим, обсерватория Улугбека, плитка.

KIRISH. Amir Temur va Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson hududlarida katta miqiyosda qurilish va memorchilik ishlari olib borildi va natijada ko`plab memoriy obidalar buniyod etildi. Jumladan Temuriylar sultanatining poytaxti bo`lgan Samarqandda ham ko`plab imoratlar bino qilindi. Misol uchun Go`ri Amir maqbarasi, Shohi Zinda, Bibixonim masjidi va madrasasi, Ulug`bek madrasasi, Ulug`bek rasadxonasi va boshqalar. Amir Temur va temuriylar zamonida Samarqand mamlakat poytaxtiga aylanishi natijasida, shaharda masjidlar, madrasalar, maqbaralar, bozorlar, karvonsaroylar va boshqa inshoatlarni qurilishi uchun keng imkoniyatlar vujudga keldi. Shaharda aholi sonining oshib borishi natijasida ham masjidlar, madrasalar, bozorlar va karvonsaroylarga bo`lgan talab va ehtiyojlar oshib bordi. Amir Temur va boshqa temuriy

shahzodalar bu holatlarni yaxshi anglagan holda aholining zaruratini qondirib borgan va natijada birgina Samarqand shahrining o`zida ko`plab inshootlar qad rostladi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Amir Temur tarixchi Ibn Arabshohning yozishicha 1336-yil 9-aprel (hijriy 736-yil, sha`bon oyining 25-kuni) da hozirgi Yakkabog` tumanidagi Xo`ja Ilg`or qishlog`ida Keshning obro`li barlos beklaridan bo`lgan Amir Temur ibn Barqal oilasida tavallud topdi. Yoshlik yillaridan yaxshi ta`lim tarbiya olgan va kuchli harbiy sarkarda bo`lib ulg`aygan. Amir Temur Movarounnahrdagi o`zaro ichki kurashlarda g`alaba qozonib, 1370-yil o`z davlatiga asos soldi. Samarqand butun Movorounnahrning poytaxtiga aylandi. Mug`o`llar bosqinidan so`ng vayronaga aylantirilgan Samarqandda 150 yil o`tganidan

FAN, JAMIYAT VA INNOVAYSIYALAR



keyin, katta qurilish ishlari olib borilganidan so`ng qayta tiklandi. Nafaqat qayta tiklandi balki, Sharqning eng yirik shaharlaridan biriga ham aylandi. Amir Temur va temuriylar zamonida Buyuk ipak yo`lida joylashgan Xitoydan Yevropagacha bo`lgan hududlardagi savdo-sotiq aloqalarining eng yirik markazlaridan biri sifatida ham rivojlandi. Samarqandda Amir Temur va temuriylar tomonidan barpo etgan masjidlar, madrasalar, maqbaralar, bozorlar, karvonsaryolar va bashqa me`moray obidalar haqida ispan elchisi Klavixo ham o`z esdaliklarida yozib qoldirgan.

XIV-XV asrlarda Samarqandda Amir Temur va temuriylar tomonidan olib borilgan qurilish, me`morchilik ishlari bugungi kunda faqat O`zbekiston emas balki, jahon miqiyosida qurilish va me`morchilik sohasida o`ziga xos ahamiyatga ega. Amir Temur va temuriylar davlatining kuch qudratini yaqqol namoyon etuvchi misollardan bir sifatida qurilish sohasida erishilgan yutuqlarni keltirishimiz mumkin. Bu davrda Samarqandda bunyod etilgan istehkomlar, keng ko`chalar, me`moriy majmualar ham katta ahamiyat kasb etadi. Amir Temur poytaxt Samarqandni bezashga ham alohida e'tibor qaratdi. Natijada shaharda ko`plab imoratlar qad rostladi.

TADQIQOT NATIJALARI

Amir Temur va Temuriylar davrida Samarqandda barpo etilgan eng yirik inshootlardan bir “Shohi Zinda ansamblı majmui” bo`lib (“Shohi Zinda” – “tirik shoh” degan manoga ega) bugungi kungacha saqlanib qolgan. Ansamblidagi eng qadimi qabr, Qusam ibn Abbas qabri bo`lib, Amir Temur tomonidan qabr ustiga dahma o`rnatilgan. Me`moriy obida O`rta Osiyo me`morchilik inshootlari orasida o`z o`rniga ega hisoblanadi. Ansamblining qurilishida qo`shgumbaz usulidan foydalanilgan, gumbazlar qurish jarayonida shakllangan ikki gumbaz – tashqi va ichki gumbaz oralig`idagi masofa

kengaydi. Maqbaralarni bezashda nastaliq yozuvidan ham keng foydalanish boshlandi.

Amir Temur va Temuriylar tomonidan “Shohi zinda” ansamblida 20 dan ortiq maqbaralar bunyod etildi.

Umuman olganda Shohi Zinda XIV - XV asrlarning sayqallangan dekorli, koshinkorli noyob muzeyidir. Bu yerda me`morchilikning yarim o`yilgan terrakota (loydan ishlanib xumdonda pishirilgan sirlanmagan va rang berilmagan mayda haykalchalar) yig'ilgan mozaikaning yo'nilgan g`ishtlardan tayyorlangan go'zal namunalarini topish mumkin. Nozikligi va go`zalligi bo'yicha biror obidaning me`moriy san'ati unga bas kelolmaydi¹.

Amir Temur davrida qurilgan va dovrug'i olamni tutgan tarixiy obidalardan yana biri bu — Go`ri Amir maqbarasidir. Bu muhtasham binoning o`z qurilish tarixi bor. Amir Temur nabirasi Muhammad Sultonni (Jahongirning og`li) juda sevar edi. Muhammad Sulton 1403 yilda, 27 yoshida shamollab vafot etadi. Uni Samarqandga olib kelib dafn marosimi o`tkazadilar². Amir Temur 1404- yil Turkiya yurishidan qaytganidan so`ng juda qisqa vaqt ichida valiahdi bo`lgan nabirasi Muhammad Sulton xotirasiga maqbara bunyod ettiradi. 1405-yilda vafot etgan Amir Temurni ham shu maqbaraga dafn etishadi va maqbara ”Go`ri Amir” maqbarasi nomini oladi. ”Go`ri Amir”ga Amir Temurning uch o`g`li Umarshayx, Mironshoh va Shohruh Mirzolar, shuningdek, nabiralaridan Mirzo Ulug`bek va Ulug`bekning ikki o`g`li kichikligida vafot etgan –Abdulla va Abdurahmon ham dafn etilgan. Maqbaraning qurilish ishlari Amir Temur davrida boshlanib Mirzo Ulug`bek davrida nihoyasiga yetadi. Temuriylar davrida maqbaralardagi o`zgarishlar sifatida, ularning arabiylar yozuvlar va turli rangdagi koshin g`ishtlar bilan bezatilganligi, gumbazlarning kengligi va oltin suvi bilan sayqal berilishi o`ziga xos jihatlaridan biri edi. Amir

¹ M.M.Vaxitov, Sh.R.Mirzayev. Me`morchilik (I qism Me`morchilik tarixi). Tosh. “Tafakkur” -2010. B-121.

² Hakim Sattoriy. Amir Temur ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. “Xalq so‘zi” gazetasи, aprel, 2021.



Temur va Temuriylar davri me`moriy inshoatlari orasida o`ziga xos o`rniga ega bo`lgan imoratlardan biri “Bibixonim” jomiy masjidi hisoblanadi. Temuriylar davri qurilishining katta yutug`i hisoblangan masjid qurilishi 1399-yil 10-may kuni Amir Temur Hindiston yurishidan qaytganidan so`ng boshlangan. Qurilish ishlari katta va keng miqiyosda olib borilgan, natijada 5 yillik qurilish ishlaridan so`ng 1404- yilda tugallangan. Tarixchi olim Sharafiddin Ali Yazdiy masjid haqida yozar ekan- “Agar osmon gumbazi bo`lma ganda masjid gumbazi olamda yagona bo`lar edi” diya tarif beradi. Masjid ichiga Mirzo Ulug`bek tomonidan ulkan marmar toshdan lavh o`rnatalgan. Lavhning atrofi latif hoshiyalar, muqarnaslar, o`simgilimon rasmi bezak va arabi yozuvli naqshlar bilan bezalgan. Lavhga “Sulton azim, oly himmatli hoqon, din u-diyonat homiysi, Hanafiya mazhabining posboni, aslzoda sulton ibn sulton, amiri mo`min Ulug`bek Ko`ragon» degan bitik yozilgan. Bibixonim masjidining devorlariga pardoz berish jarayonida pishirilgan va turli ranglardagi koshinlardan naqsh berilgan. Bugungi kunda Samarcandning tom manoda noyob gavhari bo`lib qolmoqda.

Samarcandning Temuriylar davri tarixiy yodgorliklari haqida so`z ketganda Amir Temurning suyukli nabirasi Murzo Ulug`bek farmoni bilan bunyod etilgan “Ulug`bek rasadxonasi”ni alohida takidlash lozim. Rasadxonaning qurilish ishlari 1420-yilda boshlangan va 1428-1429-yillarda tugallangan. Astronomik kuzatishlar uchun muljallangan inshoatning boshqa imoratlardan ajralib turuvchi farqi uning aylana shaklda ekanligi. Rasadxona pishiq g`ishtdan qurilgan va 30 metrdan baland bo`lib, 3 qavatdan iborat. Afsuski rasadxona bizning zamonimizgacha tuliq saqlanib qolmagan, aniqrog`i 1449- yilda mahalliy xalq tomonidan buzib tashlangan.

MUHOKAMA

Temuriylar davrida qurilgan saroylar ikki xil bo`lgan. Birinchisi – ma`muriy-siyosiy

maqsadda bo`lib, qal'a yoki shahar ichida qurilgan. Ikkinchisi – shahar tashqarisidagi bog'larda qurilgan qarorgohlar bo`lib, qabul marosimlari, majlislar o'tkazilgan va xordiq chiqarilgan³. Shuningdek bu davrda Samarcandda bunyod etilgan inshoatlar ham boshqa yurt va davr qurilish tehnikalaridan tubdan farq qilgan. XIV-XV asr me`morchilik durdonalari hisoblangan noyob imoratlarda mavjud bo`lgan qurilish usullari ko`p gumbazlilik va ansambl shaklida imoratlarning bir –biriga qushilib ketishi holatlari kuzatiladi. Samarcandda Temuriylar davrida qad rostlagan inshoatlarning o`xshashlik jihatlari ham bor, bu qurilish namunalarini Samarcand me`morchilik maktabi maxsuli sifatida, umumiy nom ostida tilga olsak maqsadga muofiq bo`ladi. Movorounnahrning va umuman Amir Temur imperiyasining poytaxti sifatida tanlanga 1370 – yildan boshlab, bu hududda olib borilgan obodonlashtirish va keng miqiyosli bunyodkorlik ishlari Samarcandni poytaht sifatidagi mavqiyini oshirish bilan bir qatorda, boshqa shaharlar uchun namuna ham edi. Saltanatning turli burchaklari Xorazm, Xuroson, Eron, Iroq, Kavkaz va Hindistondan poytaxtga kelgan quruvchilar, o`z mamlakatlarida mavjud bo`lgan qurilish usliblarini birlashtirgan holda imoratlar bino qilishdi. Masalan, Ulug`bek rasadxonasi qurilishida Xulokuxon va Manguxon tomonidan Nosiriddin at-Tusiy ishlab chiqqan rejalar asosida imorat qilingan Marog`a rasadxonasidan andoza olgan holda bunyod etilgan. Shuningdek rasadxona Bobur Mirzoning aytishicha sirti koshin va chiroyli bezaklar bilan ziynatlangan bo`lgan.

Qurilish va me`morchilikning rivojlanishiga Amir Temur va temuriylar davrida aniq fanlarning taraqqiyoti ham katta ta`sir ko`rsatdi. Matematika, geometriya va astronomiya kabi fanlarda erishilgan yutuqlar qurilish sohasida ham keng miqiyosda ishlatildi. Imoratlarning ichki va tashqi tomonlaridagi bo`rtma naqshlar geometriya fanining

³ Qodirov B. Amir Temur madaniyat va ilm-fan homiysi. “Ijodiy parvoz” gazetasi, 4 (60)-son, aprel, 2018.



mo`jizalaridan biri edi. Imoratlarga bitilgan yozuvlar ham qurilgan inshoatga o`ziga xos ko`rk va bezak berib turadigan me`morchilikning bir bo`lagiga aylanib qoldi. Qurilish va me`morchilikda o`z o`rniga ega bo`lgan yog`och o`ymakorligi ham XIV -XV asrlarda taraqqiy etishda davom etdi. Masjid va madrasalarning darvoza va eshiklarini ustun va shiplarini o`yma naqshlar tushirilgan nafis yog`ochlar sayqallab turardi.

XULOSA. Amir Temur va temuriylar zamonida Samarqandda olib borilgan qurilish va me`morchilik imoratlarisiz bugungi Samarqand shahrini tasavvur etish mushkul ish. XIV –XV asrlarda bunyod etilgan inshoatlar nafaqat o`z davrining balki, bugungi kun jahon me`morchiligining ham ajralmas qismidir. Amir Temur va boshqa temuriy shahzodalar va malikalar tomonidan mamlakat taraqqiyoti uchun amalga oshirilgan ishlarning eng ulug`i, birinchi o`rinda ilm-fanni rivojlantirish bo`lsa, ikkinchi o`rinda bunyodkorlik, qurilish va me`morchilik hisoblanadi. Barcha zamonlarda mavjud bo`lgan

mamlakat va sultanatlarning qay darajada gullab-yashnagani va taraqqiy etganligini anglatuvchi, kursatuvchi ko`zgu avvalo u yurtning ilm-fanga bo`lgan munosabati va talim tizimi bilan belgilansa, bu taraqqiyotning dalili sifatida el tomonidan bunyod etilgan inshoat va imoratlar ko`rsatiladi. Amir Temur va temuriylar saltanating nechog`lik yuksakligi va ulug` vorligining belgisi sifatida Samarqandda bunyod etilgan imoratlarning o`zi yetarli. Movarounnahr shaharlari XIII asrda mo`g`ul bosqinchilari tomonidan vayron etilganidan so`ng bir yarim asr vaqtadan so`ng temuriylar qo`l ostida qayta gullab-yashnadi. Yangi qurilish texnikalari, yangi me`morchilik maktablari vujudga keldi. Amir Temur “Bizning kuch qudratimizga shubha qilsangiz, biz qurgan binolarga boqing,”- deb bejiz aytmagan. Bugungi kungacha saqlanib qolgan tarixiy yodgorliklarni saqlab qolish va kelgusi avlodga yetkazishdek mushkul ish zimmamizga tushgan. Bu ishni bajarish esa jamiyatimiz va xalqimiz oldidagi ulug` bir burchdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.M.Vaxitov, Sh.R.Mirzayev. Me`morchilik (I qism Me`morchilik tarixi). Tosh. “Tafakkur” - 2010. B-121.
2. Hakim Sattoriy. Amir Temur ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. “Xalq so‘zi” gazetasi, aprel, 2021.
3. Qodirov B. Amir Temur madaniyat va ilm-fan homiysi. “Ijodiy parvoz” gazetasi, 4 (60)-son, aprel, 2018.
4. N.Y.Turdiyeva, O.Y.Yusupov, F.J.Bakiyev. Samarqand tarixiy obidalari. Samarqand-2018.
5. A.T.Salayev. Amir Temur va Temuriylar davri me`morchilik obidalari. Science and Innovation international scientific journal- 2022.
6. <https://www.sayyoh.com> Samarqand- Mirzo Ulug`bek rasadxonasi.
7. <https://www.meros.uz> Shohi Zinda maqbarasi.